ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№5(4)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 396 sahifa,
18-may, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi ........ 10
**Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi**

2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori ........ 14
**Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna**

Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari ........ 18
**Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi**

Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni ........ 23
**Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li**

Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari ........ 28
**B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari ........ 34
**Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi**

Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari ........ 39
**Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna**

Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi ........ 47
**A. Safarov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari ........ 57
**Xolmatov Doston Dilshod o'g'li**

7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi ........ 60
**Xolmurodova Sarvinoz**

Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi ........ 64
**G'afforova Dildora Ergashevna**

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari ........ 69
**Yusupova Umida Zayniddin qizi**

Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati ........ 74
**Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi**

Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil ........ 78
**Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi**

Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi ........ 81
**Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrinxon qizi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish ........ 86
**Xurramova Sojida Abdunazar qizi**

Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari ........ 91
**Risvayeva Charos Zaydilla qizi**

Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi ........ 94
**Z. N. Urunova, M. Jaborova**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash ........ 97
**Sattorova Shirinoy San'atovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ........ 100
**Buvrayev Akram Rustam o'g'li**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar ........ 104
**Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna**

O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning ahamiyati ........ 107
**Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ..................... 111
Akaboyeva Malika Raxmatovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi ..................... 114
Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari ..................... 117
Xoliyeva Sevara Rustam qizi

Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish ..................... 122
Narmatova Fotima Dilshod qizi

Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements ..................... 127
Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi .... 129
Meyliyeva Sevinch Bozor qizi

Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari ..................... 132
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi

Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish ........... 136
Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi

Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi ..................... 139
Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich

Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя ..................... 144
Дусткобилов Акмал Бобомуродович

Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor ..................... 149
Дусткобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович

Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar ..................... 154
Delov To'lqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri ..................... 160
Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi

Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli ..................... 165
Amonov Mirjon Namozovich

O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni ..................... 170
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi

Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari ..................... 174
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ..................... 178
Jumayeva Guzal Xayriddin qizi

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish ..................... 183
Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich

Globallashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari ..................... 187
Axralova Marg'uba Akmalxanovna

Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari ..................... 191
Jumanova Xafiza Xoliqulovna

Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..................... 196
Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna

Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti ..................... 202
Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction ................205
A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati ............208
Majitov Turg'unali Anvar o'g'li

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari.....................................................................................................................214
Ismoilova Muattar Ilyosovna

Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari.........................219
Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li

Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish .....................222
Murodova Sayyora Qanoatovna

Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari ..............................................................226
Norboyeva Dilafruz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li

Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari ........................................................................................................................230
Abdunabiyeva Kamola Mansurovna

Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili ...............................................................................236
Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi

Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .........................................240
Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish.................................................................................................245
Raximov Zokir Toshtemirovich

Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari .....249
Temirov Shoirbek Raimjonovich

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish....................................253
Kimsanova Rahnamo Solijonovna

Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish.........................................................257
Muratov Muzaffar Shermamatovich

Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari .....................................................................................261
Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li

Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari ........................264
Oblayeva Lobar Erdonovna

STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations ...............................268
Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi

Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari .....................................................................................272
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna

Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi....................................................276
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi

Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools........279
S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova

Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration .....................................................................282
Shahlo Obidova

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish .........................................................................286
Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi

Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari ...................................290
Turakulova Feruza Mamadoli qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari ....... 294
Xoliyeva Sevara Rustam qizi

Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ....... 298
Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna

Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish ....... 302
Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li

Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) ....... 305
Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи

Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие ....... 308
Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна

Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе ....... 311
Нехочина Лола Шахобиддиновна

Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания ....... 314
Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова

Oila tushunchasi uning ijtimoiy ahamiyati haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari ....... 321
Shokirov Xolida O'rozboq qizi, Abdurashidova Sarvinoz Akrom qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining uyg'unligi ....... 325
Bekmirzayev Shavkat Olim o'g'li

Global ta'lim tendensiyalari asosida maktabgacha ta'lim mazmunini transformatsiyalash mexanizmlari ....... 329
Haqqiyeva Fotima Olimjonovna

O'zbekiston mustaqillik taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'lim paradigmalarining evolyutsion tahlili ....... 333
Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Sayfullayeva Parvina

Malaka oshirish tizimida o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikka asoslangan yondashuvining ilmiy ahamiyati ....... 338
Sobirova Lobar Raximovna

Qutqaruvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda ilmiy-metodologik yondashuvning ahamiyati ....... 343
Abdunosir Abdurasulovich G'afurov

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishi kamchiliklarini bartaraf etishda pedagogik yondashuv ....... 347
To'rayeva Dilbar, Zulayxo Nazarova

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun-mohiyati ....... 350
Samadova Mahliyo, Zulayxo Nazarova

Harakatli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish ....... 354
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna, Mustafayeva Dilfuza Jumanovna

Multimodal yondashuv asosida talabalarning ekologik kompetensiyalarini takomillashtirish tizimining ahamiyati ....... 358
O'sarova Muborak Fahriddinovna

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari ....... 362
Kurbanov Dilmurat Marupjanovich

Shaxs kamolotida ijtimoiy moslashuv va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati ....... 367
Nazira Axmadjonovna Dadaboyeva

Individual yondashuv asosida maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalar integratsiyasi ....... 371
Xaydarova Zilola Normurodovna, Hasanov Samir Xayrulloyevich

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida differensial yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari ......................... 375
**Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna**

Onlayn muloqot strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri ....................................... 379
**Davlatova Ra'no Haydarovna, Islomova Shahlo Madat qizi**

Ajrim yoqasidagi oilalarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish ................ 385
**Tojibayeva Nargiza Keldibekovna**

Raqamli muhitda yolg'izlik fenomenining nazariy tahlili ........................................................................... 389
**Turg'unboyeva Nodira Baxtiyor qizi**

Психологические последствия буллинга для личности подростка и его социализации ........................ 392
**Амирова Луиза Маратовна**

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# HARAKATLI O'YINLAR ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

Yaxyayeva Sojida Abduraximovna
JTSBMQTMOI Samarqand filiali v.b. professori

Mustafayeva Dilfuza Jumanovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali
MPRE-S-251-U guruh Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini, jumladan tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirishda harakatli o'yinlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni tashkil etishning metodik jihatlari tahlil qilingan hamda bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlangan o'yinlarning jismoniy tayyorgarlik va salomatlikni mustahkamlashdagi samaradorligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yoshdagi bolalar, jismoniy sifatlar, harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya, salomatlik, pedagogik texnologiya, tezkorlik, chaqqonlik, metodika.

**Abstract:** The role and significance of active games in the development of physical qualities such as speed, agility, strength, endurance, and flexibility in preschool children are discussed. Methodological aspects of organizing active games in preschool educational institutions are analyzed, and the effectiveness of games selected according to children's age characteristics in strengthening their physical fitness and health is substantiated.

**Key words:** preschool children, physical qualities, active games, physical education, health, pedagogical technology, speed, agility, methodology.

**Аннотация:** Рассмотрены роль и значение подвижных игр в развитии физических качеств детей дошкольного возраста, таких как быстрота, ловкость, сила, выносливость и гибкость. Проанализированы методические аспекты организации подвижных игр в дошкольных образовательных организациях, а также обоснована эффективность игр, подобранных с учетом возрастных особенностей детей, в укреплении их физической подготовленности и здоровья.

**Ключевые слова:** дети дошкольного возраста, физические качества, подвижные игры, физическое воспитание, здоровье, педагогическая технология, быстрота, ловкость, методика.

## KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida globallashuv va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy faolligi pasayishi (gipodinamiya) kuzatilmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim yoshidanoq bolalarning salomatligini mustahkamlash va ularda jismoniy sifatlarni shakllantirish masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda [1,12].

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son[1] Qonuni hamda Maktabgacha ta'limning davlat o'quv dasturi – "Ilk qadam"da bolalarning jismoniy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2,45].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, jismoniy sifatlar – insonning harakat faoliyatini belgilovchi morfologik va psixofiziologik xususiyatlaridir. Maktabgacha yoshdagi davr inson hayotida jismoniy sifatlar (tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik)ning poydevori qo'yiladigan eng muhim bosqich hisoblanadi [3,78].

1. **Chaqqonlik:** O'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida harakatlarni tez va aniq qayta qurish, kutilmagan vaziyatlarda murakkab harakat koordinatsiyalarini bajara olish qobiliyatidir. Bu bolaning kundalik hayo-

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-4646908

tida yiqilish va jarohatlanishlarning oldini olishga yordam beradi. Chaqqon bola har qanday toʻsiqni tezda chetlab oʻta oladi, fazoviy moʻljalni yaxshi oladi hamda oʻz tanasini boshqarishda erkin boʻladi.

2. **Tezkorlik:** Harakatlarni eng qisqa vaqt ichida yuqori sur'at bilan bajarish imkonini beruvchi funksional xususiyatdir. Bu sifat bolaning nerv tizimi reaksiyasini tezlashtiradi. Harakatli oʻyinlarda (masalan, quvlash-machoq) signalga tezkor javob berish, xavfdan tez uzoqlashish va qaror qabul qilish tezligini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

3. **Kuch:** Tashqi qarshilikni (masalan, predmet ogʻirligini) mushaklar zoʻriqishi orqali yengish yoki unga qarshilik koʻrsatish qobiliyatidir. Bu sifat bolada toʻgʻri qomat (osanka) shakllanishi uchun poydevor boʻladi. Shuningdek, tayanch-harakat tizimini mustahkamlaydi, ichki a'zolarning normal rivojlanishini ta'minlaydi va bolaning jismoniy yuklamalarga chidamliligini oshiradi.

4. **Chidamlilik:** Muayyan jismoniy ishni uzoq vaqt davomida samaradorlikni yoʻqotmagan holda bajarish, ya'ni charchoqqa qarshilik koʻrsatish qobiliyatidir. Bu bolaning yurak-qon tomir va nafas olish tizimini chiniqtiradi. Chidamli bola tez charchab qolmaydi, faol oʻyinlarda uzoqroq qatnashadi va uning umumiy immuniteti yuqori boʻladi.

5. **Egiluvchanlik:** Harakatlarni katta amplitudada (keng qamrovda) bajarish imkonini beruvchi boʻgʻinlarning harakatchanligidir. Mushaklarning choʻziluvchanligini yaxshilaydi va boʻgʻinlar salomatligini ta'minlaydi. Egiluvchan bolalarda harakatlar plastikasi (nafosati) yaxshi rivojlanadi hamda harakat jarayonida mushaklar zoʻriqishining oldi olinadi.

| Jismoniy sifat | Rivojlantiruvchi oʻyin turi | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|
| **Chaqqonlik** | "Yoʻnalishni oʻzgartir", "Toʻsiqlardan oʻtish" | Fazoni his qilish va koordinatsiya |
| **Tezkorlik** | "Kim birinchi?", "Signalga qarab yugur" | Reaksiya tezligi va harakat sur'ati |
| **Kuch** | "Arqon tortish", "Kim uzoqqa otadi?" | Mushak tonusi va tayanch tizimi |
| **Chidamlilik** | "Uzoq masofaga yugurish oʻyinlari" | Yurak-qon tomir va nafas tizimining mustahkamligi |
| **Egiluvchanlik** | "Koʻprikcha", "Lenta ostidan oʻtish" | Boʻgʻinlar harakatchanligi |

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni olishda maktabgacha ta'lim tizimiga oid ilmiy adabiyotlar, metodik qoʻllanmalar, davlat ta'lim dasturlari hamda jismoniy tarbiya va harakatli oʻyinlarga oid ilmiy manbalarni oʻrganish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar boʻyicha mavjud ilmiy-nazariy ma'lumotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni yigʻish jarayonida hujjatlarni tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyosiy oʻrganish, kuzatish natijalarini umumlashtirish hamda tizimlashtirish usullari qoʻllanildi.

Olingan ma'lumotlar harakatli oʻyinlarning bolalarda tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi ta'sirini aniqlash asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda tavsifiy tahlil, qiyosiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi hamda mavjud ma'lumotlar pedagogik nuqtai nazardan tizimli ravishda baholanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur sifatlarni rivojlantirishning eng samarali va tabiiy vositasi harakatli oʻyinlar hisoblanadi. Harakatli oʻyinlar bolaning nafaqat jismoniy salomatligini yaxshilaydi, balki unda jamoada ishlash, qoidalarga boʻysunish hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalashga ham xizmat qiladi [4,102].

Bolaning tugʻilgan kunidan boshlab har tomonlama yetuk va barkamol inson boʻlib voyaga yetishida jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Bolalar bilan badan tarbiya, jismoniy tarbiya mashgʻulotlari, sayrlar, harakatli oʻyinlar, jismoniy tarbiya daqiqalari, sogʻlomlashtirish tadbirlari, koʻngilochar musobaqalar hamda ochiq havodagi jismoniy mashqlarni tashkil etish va oʻtkazish zarur. Kun tartibida qoidali oʻyinlar muhim oʻrin egallaydi. Mashgʻulotlar davomida va mashgʻulotdan tashqari vaqtlarda oʻynaladigan didaktik hamda harakatli oʻyinlar muhim rol oʻynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini va bilish jarayonlarini didaktik oʻyinlar orqali amalga oshiradi.

Harakatli oʻyinlar orqali bolalarning jismoniy madaniyatini tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarur. Ilk yoshdagi bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakatlari bilan bogʻliq ovunchoqlar va ermak oʻyinlar yordamida tarbiyalanganlar [5,34]. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega boʻlgan, oʻz ichiga bolalarni rom qiluvchi oʻyin boshlanmalari, xirgoyilar va sanashmacholarni oluvchi xalq oʻyinlari muhim oʻrin egallagan.

Maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab bolalarda o'z xalqining urf-odatlari, an'analari va tarixiga qiziqishni tarbiyalash maqsadida "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturida har bir yosh guruhi uchun o'rgatiladigan milliy va harakatli o'yinlar belgilab ko'rsatib berilgan.

Atoqli rus pedagogi P.F. Lesgaft o'yinni bolani hayotga tayyorlashga yordam beruvchi mashq deb hisoblaydi. Bu mashq mustaqil faoliyat bo'lib, unda bolaning shaxsiy tashabbusi rivojlanadi va axloqiy sifatlari tarbiyalanadi [6,215].

U har bir o'yin maqsadga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Buning uchun o'yindagi harakatlar bolaning o'zini boshqara olish malakasiga mos bo'lishi, ushbu harakatlar esa tizimli mashqlar asosida oldindan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim. Harakatli o'yinlarni muntazam o'tkazish bolalarda o'z harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, ular gavdasini tartibga soladi, ya'ni turli zo'riqishlarda harakat qilishga o'rgatadi [7,56].

O'yinlar bolani chaqqonlik, muayyan maqsadga yo'naltirilganlik va tezkor harakat qilishga, qoidalarga rioya etishga, o'zini tutishga hamda o'rtoqlikni qadrlashga o'rgatadi. Harakatli o'yinlar ertalabki va kechki sayr vaqtlarida tashkil etilib, kuniga 1–2 marta butun guruh yoki kichik guruhlar bilan o'tkazilishi tavsiya etiladi. O'rta va katta guruhlarda turli sport o'yinlari ham tashkil etiladi. Barcha o'yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va zarur materiallar bilan ta'minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga mo'ljallangan o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **qoidali harakatli o'yinlar:**

a) mazmunli o'yinlar;

b) mazmunsiz o'yinlar;

2) **sport o'yinlari.** Qoidali harakatli o'yinlarga mazmunli va mazmunsiz o'yinlar kiradi [8,89].

Mazmunli harakatli o'yinlar hayotiy va afsonaviy epizodlarni harakatlar orqali aks ettiradi.





Bolalarni ijodiy amalga oshiriladigan o'yin obrazlari jalb etadi ("Chumchuqlar va avtomobil", "Bo'ri va g'ozlar", "Maymunlar va ovchilar" va boshqalar). Mazmunsiz harakatli o'yinlar bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan maqsadga erishishga yordam beruvchi harakatli o'yin topshiriqlaridan iboratdir. Ular o'z navbatida yugurib o'tish va quvlashmachoq tipidagi o'yinlar, musobaqa elementlari mavjud o'yinlar ("Kimning zvenosi tezroq saflanadi?", "Kim o'z bayroqchasiga tezroq yetib bora oladi?"), murakkab bo'lmagan o'yin-estafetalar ("Kim to'pni tezroq uzatadi?"), buyumlar (to'plar, chambaraklar, arg'imchoqlar, keglilar) bilan bajariladigan o'yinlar hamda harakat mazmuniga ko'ra farqlanadigan o'yinlarni (yugurish, sakrash, uloqtirish va boshqalar) o'z ichiga oladi. Shuningdek, kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan o'yin-ermaklar ("Chapak-chapak", "Shoxli echki" va boshqalar) ham mavjud.

Sport o'yinlariga voleybol, basketbol, badminton, shaharcha, lapta, stol tennisi, futbol va xokkey kiradi. Sport o'yinlarida eng avvalo maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Shu sababli ular uchun sodda, harakat texnikasining ayrim qoidalari va o'yinni tashkil etishning elementlari tanlanadi. Shu tufayli o'yin omillari katta yoshdagi kishilarda bo'lgani kabi jismoniy va asabiy zo'riqishlarni yuzaga keltirmaydi. Ayni paytda ular maqsadga intilish, o'rtoqlik va mas'uliyat hissini hamda sportga bo'lgan qiziqishni tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida harakatli o'yinlar eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu yoshda o'yin shunchaki vaqt o'tkazish emas, balki bolaning jismoniy imkoniyatlarini aniqlash va mustahkamlash jarayonidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun tartibida jismoniy rivojlanish uchun eng muhim vaqt – ertalabki nonushtadan keyingi vaqt (09:00–10:30) hamda tushdan keyingi sayr vaqti hisoblanadi.

| Vaqt oralig'i | Faoliyat turi | Muhimlik sababi |
|---|---|---|
| **09:00–10:30** | Asosiy mashg'ulot va harakatli o'yinlar | Bolaning diqqati eng yuqori bo'ladi, organizm energiya bilan to'la va yangi harakatlarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladi |
| **11:00–12:00** | Toza havodagi sayr | Kislorod bilan to'yingan muhitda o'ynaladigan o'yinlar modda almashinuvini yaxshilaydi va ishtahani ochadi |
| **16:30–17:30** | Uyqudan keyingi faollik | Kun davomida to'plangan statik charchoqni bartaraf etish va emotsional yuklamani kamaytirishga xizmat qiladi |

Quyidagi tavsiyalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Bolalarga "mashq qilamiz" degandan ko'ra, "tulki va quyoncha o'ynaymiz" deyish 2–3 baravar ko'proq samaradorlik beradi.
2. Katta guruhlarda harakatli o'yinlar 20–25 daqiqa, kichik guruhlarda esa 10–15 daqiqadan oshmasligi lozim.
3. Ochiq havoda o'yin tashkil etilganda harorat va kiyim bolaning harakatiga to'sqinlik qilmasligi zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Harakatli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ular bolaning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki uning psixologik, ijtimoiy va emotsional shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Harakatli o'yinlar orqali bolalarda tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlar rivojlanadi, shu bilan birga ularda intizom, jamoada ishlash, muloqot qilish, mas'uliyat hissi va irodaviy sifatlar ham shakllanadi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yosh davri jismoniy sifatlarning poydevori qo'yiladigan eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu davrda harakatli o'yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarning sog'lom o'sishi hamda keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni tashkil etishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, milliy harakatli o'yinlardan keng foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'yin faoliyatiga integratsiya qilish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tarbiyachilar uchun harakatli o'yinlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalarni kengaytirish va amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish bolalar jismoniy rivojlanishining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Usmonxo'jayev T. S. Milliy harakatli o'yinlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 156 b.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T.: 2022. – 112 b.
3. Salamatov A. A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018. – 230 b.
4. Mahmudov M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014. – 180 b.
5. Yo'ldosheva R. Maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalari. – T.: TDPU, 2019. – 145 b.
6. Lesgaft P. F. Rukovodstvo po fizicheskomu obrazovaniyu detey shkolnogo vozrasta. – M.: Fizkultura i sport, 1988. – 320 s.
7. Nurmuhammedova M. Bolalar jismoniy madaniyati. – Samarqand, 2021. – 98 b.
8. Shokirjonova Sh. S. Harakatli o'yinlar metodikasi. – Toshkent, 2010. – 120 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №5(4)**


© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.